

SA’DUDDIN TAFTAZONIYNING ASARLARI
KLASSIFIKATSIYASI XUSUSIDA

REGARDING THE CLASSIFICATION OF
SA’UDUDDIN TAFTAZANI’S WORKS

Bo‘tayev Sardor Choriyevich

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,

ijtimoiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

ORCID: 0009-0007-5486-134X

E-mail: sardorunbutayevun@gmail.com

Annotatsiya. Taftazoniyning ilmiy merosi Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixida munosib o‘rin tutgan qadimgi yunon faylasuf va mantiqshunoslari maktabiga mansubdir. Ammo eramizdan oldingi ilmiy yutuqlar bilan chegaralanmasdan, sharq Uyg‘onish davri yuksakliklaridan turib uni rivojlantirilganligi va yangi g‘oyalar bilan boyitilganligi diqqatga sazovordir. Taftazoniy Temur davridagi Samarqand ilmiy muhitida o‘sha zamon olimlari bilan birgalikda samarali ijod etib, keyinchalik jahonshuadud. ahamiyat kasb Itan Ulug‘bek maktabining vujudga kelishiga zamin hozirlagan mutafakkirlardan biri bo‘lib tarixda qoldi. U islom falsafasi bo‘lgan kalomga mantiqiy xulosalarni tadbiq etib, uni kuchaytirdi va ilohiyotning ham jozibali fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. Uning asarlarining ilmiy qimmatini hozirda ham o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q. Taftazoniyning ilmiy merosini o‘rganish tafakkurimiz tarixining zarhal sahifalarini boyitish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Taftazoniy, “sa’d al-milla va ad-din”, naso, “at-Tasrif”, “Sharh at-tasrif al-iziy”, “Sharh at-tasrif al-izziy”, Abivard, Nishopur.

Abstract. Taftazani's scientific legacy belongs to the school of ancient Greek philosophers and logicians, who took a worthy place in the history of social and political thinking of the peoples of the Near and Middle East. But it is noteworthy that it was developed and enriched with new ideas from the height of the Eastern Renaissance, not limited to scientific achievements before our era. Taftazani worked effectively in the scientific environment of Samarkand during the time of Timur together with the scientists of that time, and later became world famous. He remained in history as one of the thinkers who prepared the ground for the creation of the Ulugbek school. He applied logical conclusions to the Islamic philosophy of kalam, strengthened it and made a great contribution to the development of theology as an attractive science. The scientific value of his works has not lost its power even now. Studying the scientific heritage of Taftazani allows us to enrich the golden pages of the history of our thought.

Key words: Taftazani, "sa'd al-millah wa ad-din", naso, "at-Tasrif", "Sharh at-tasrif al-Izzi", "Sharh at-tasrif al-Izzi", Abivard, Nishapur.

Yurtimizda keng tarqalgan hanafiy mazhabining yirik namoyandalaridan biri Sa'duddin Taftazoniydir. Bu olim nafaqat islom olamida “sa'd al-milla va ad-din”, “sa'd al-imom al-alloma al-faqih al-adib al-hanafiy” va “sharqning olimi” kabi nomlar bilan mashhur[1], balki o'zining ko'plab qomusiy asarlari bilan jahon ilm-faniga katta hissa qo'shgan olim sifatida e'tirof etiladi. Olimning to'liq ismi Mas'ud ibn Umar ibn Abdulloh ibn Shamsuddin al-Qoriy bo'lib, Xurosonning Naso (hozirgi Turkmaniston, Ashxobod) shahridagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. Mashhur muarrix olim Yoqut Hamaviyning (574-626/1179-1229) ta'kidlashicha, bu shahar, arab musulmon lashkarlari Xurosonga kelganlarida u yerdagi barcha erkaklar jang qilish uchun shaharni tark etganliklarini va faqat ayollar qolganini ko'rib, bular “naso” (ayollar) ekan, ular bilan urush qilmang deb, ayollarga nisbatan kuch ishlatmagan ekanlar. Shu sababdan bu shaharning nomi Naso deb atalgan. Tarixda “nasoiy” nisbasiga ega ko'plab olimlar o'tgan. Saraxs bilan Naso orasida ikki kunlik, Marv bilan besh kunlik, Abivard bilan bir va Nishopur bilan olti yo yetti kunlik masofa bo'lgan. Shahar iqlimi toza va mo'tadil bo'lgan[2].

Allomaning tavallud topgan yili to'g'risida manbalarda turli ma'lumotlar keltirilgan. Ba'zi manbalarda 722/1322 yil ko'rsatilsa, boshqalarida 712/1312 yil keltirilgan.

Sa'duddin Taftazoniy yoshligidanoq ilm olishga katta qiziqish bilan qaragan. Sa'duddin Taftazoniyning nutqida biroz duduqlik bo'lgan. U Taftazon qishlog'ini ilm olish maqsadida tark etib Naso shahriga boradi. Lekin, manbalarda Naso shahrida qancha muddat ta'lim olganligi haqida aniq ma'lumot uchramasa-da, xattotlik, imlo qoidalari, Qur'oni karimni yod olish va islom dini ta'limotlarini chuqur o'rganganligi keltiriladi. Shundan keyin, Ibn al-Imodiy aytishicha, Sa'duddin Taftazoniy Naso shahridan ta'lim olish uchun Samarqandga yo'l olgan. Sa'duddin Taftazoniy ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va mantiq ilmini o'n olti yoshigacha o'z davrining yirik olimlari Azududdin al-Ijjiy (vaf. 766/1365 y.) va Qutbiddin Muhammad ar-Roziy (vaf. 766/1365 y.) lardan o'rgangan. U alloma Azududdin al-Ijjiyning shogirdlari orasida o'zining salohiyati bilan ajralib turgan.

742/1341 yili Jurjoniya (Gurganch) shahriga boradi. Bu paytga kelib bu shaharda Sa'duddin Taftazoniyning alloma Azduddin Abdulvahob Ibrohim az-Zanjoniyniing nahvga oid “at-Tasrif” kitobiga o'n olti yoshida (738/1338 y.) yozgan sharhi ma'lum va mashhur bo'lib ketgan edi. Sa'duddin Taftazoniy bu shaharda ilmiy ijodga, bebaho asarlar yozishga qattiq bel bog'laydi va ko'pgina shogirdlar tayyorlaydi hamda o'zining balog'at ilmiga oid “al-Mutavval ala at-Talxis” nomli asarini ham mana shu yerda yozib tugatadi[3].

Sa'duddin Taftazoniyning ilm olish va ta'lim-tarbiya berish maqsadida butun umri davomida ko'plab joylarga safar qilishiga qaramasdan, farzandlarini ham ilm olishiga alohida e'tibor bergan. Manbalarda, allomaning uchta o'g'li haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ular ham o'z davrining mashhur olimlari bo'lib yetishgan. Muhammad ibn Mas'ud at-Taftazoniy ismli o'g'li ham mashhur olimlardan bo'lib, Amir Temur majlislarida qatnashagan[4].

Allomaning Qutbiddin ismli boshqa o'g'li esa, “Shayxulislom” lavozimida ishlagan. “Shamsuddin” nomi bilan mashhur bo'lgan Ahmad ibn Mas'ud ismli o'g'li muhaddis va faqih bo'lib, “Shayxulislom” lavozimida ishlagan. Sa'duddin Taftazoniy vafotidan keyin uning Xurosondagi o'rnini egallagan.

Sa'duddin Taftazoniy Sohibqiron Amir Temur taklifi bilan Samarqandga keldi. Sa'duddin Taftazoniy ko'plab asarlarini Movarounnahr shaharlarida yozgan. Allomaning saroyga taklif etilishi to'g'risida Xondamir o'zining “Habib as-siyar” asarida quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: “Sohibqiron Amir Temur Xorazmga 770-771/1369-1370 yillarda qilgan yurishi paytida Saraxs hokimi Muizzuddin Husayn Amir Temurdan Taftazoniy Saraxsga yuborishini so'raydi. Amir Temur uning iltimosiga binoan Taftazoniy u yerga yuboradi. Taftazoniy Samarqanddan ketgach, Amir Temurga uning qanchalar bilimdon, olim ekanligini aytganda qilgan ishidan afsuslangan. Amir Temur Taftazoniyga Samarqandga qaytib kelishi haqida noma yuboradi. Taftazoniy Hijoz safariga o'tlanayotganligi bois birinchi taklifni o'zi rad qilgan. Lekin, Amir Temur ikkinchi bor taklif qiladi. Ushbu taklifni Taftazoniy rad eta olmay poytaxtga, ya'ni Samarqandga tashrif buyuradi. Bu voqea Amir Temur 789/1387 yili Sherozga yurish qilgandan keyin sodir bo'lgan”[5].

1377 yilda Sa'duddin Taftazoniy, do'sti va hamkori Mir Sayyid Sharif Jurjoniy tufayli Sherozga Shoh Shujo' huzuriga taklif qilinadi. Amir Temur bu shaharni bosib olgandan keyin, ikki olim ham Samarqandga keladi. Ikki do'st o'rtasida Amir Temur saroyida katta ilmiy bahslar bo'lgan.

Olimning vafoti haqida ham manbalarda turli xil sanalar ko'rsatilgan. Jumladan, “Favoid al-bahiya”da olimning vafoti 789/1387 yil, Xondamirning “Habib as-siyar” asarida 796-797/1394-1395 yil, Hoji Xalifaning “Kashf az-Zunun” asarida 793/1390 yil, Ahmad ash-Shantoviyning “Doirat al-ma'orif al-islomiya”, imom Suyutiyning “Bug'yat al-vuot” asarlarida 791/1389 yil, Sharafuddin Roqimiyning “Tarixi tomm” asarida 794/1392 yil[6] tarzida keltirilgan. Xayruddin Zirikliy va Sharafuddin Roqimiy asarlarida keltirilgan ma'lumotga ko'ra, alloma Samarqandda vafot etgan bo'lsa-da, Saraxsga dafn etilgan[7]. Ko'pchilik manbalarda Sa'duddin Taftazoniy sakson yoshida vafot etgani ta'kidlanadi va u 794/1392 yilga to'g'ri kelib, shu ma'lumot asosli hisoblanadi.

Sa'duddin Taftazoniy butun umri davomida ilm olish maqsadida o'z davrining ilm o'choqlari bo'lgan Naso, Saraxs, Samarqand, Buxoro, Xorazm va Damashq kabi

shaharlarda bo‘lib, ilmning turli sohalarida ko‘plab taniqli olimlar qo‘lida tahsil olgan va turli ilmiy anjumanlarda bevosita ishtirok etgan.

Allomaning ustozlari qatorida quyidagilarning nomlarini zikr qilish mumkin:

1. Azududdin Abdurahmon ibn Rukniddin Abdug‘affor ibn Ahmad Bakriy Shibankariy al-Iyjii (vaf. 680/1355 y.). U shofiiy mazhabining yetuk faqihi va ash‘ariylik maktabining ko‘zga ko‘ringan mutakallimi bo‘lib, o‘zi mudarrislik qilgan madrasada ko‘plab mashhur shogirdlarni chiqardi. Ulardan, Shamsuddin Kirmoniy, Ziyovuddin Afifiy hamda Sa‘duddin Taftazoniy kabilarni aytish mumkin. Iyjii ko‘plab asarlar yozgan bo‘lib, ulardan eng asosiylari “Axloq Azudiddin”, “al-Aqoid al-Azudiya”, “al-Mavoqif” va “Javohir al-kalom” asarlaridir.

2. Ziyovuddin Abdulloh ibn Sa‘dulloh ibn Muhammad ibn Usmon Qazviniy (vaf. 780/1378 y). Bu allomadan Sa‘duddin Taftazoniy dars tinglagan.

3. Qutbuddin Muhammad ibn Muhammad Roziy, at-Tahtoniyy (vaf. 766/1365 y.). Undan, Damashqqa borganda ilm o‘rgangan. O‘sha payta u Zohiriya madrasasining quyi bosqichida o‘qiyotgan edi.

4. Nasimuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Said ibn Mas‘ud ibn Muhammad ibn Ali Naysoburiy (vaf. 801/1399 y.).

5. Ahmad ibn Abdulvahob Qusiy (yoki al-Qusay, vaf. 803/1401 y.) kabilarni keltirish mumkin.

Natijada, Sa‘duddin Taftazoniy o‘z davrida keng tarqalgan aqoid, mantiq, usul al-fiqh, fiqh, astronomiya, matematika kabi ilm sohalarida yetuk olim darajasiga erishadi.

Ayni paytda, Sa‘duddin Taftazoniy chuqur bilimlari va kalom, fiqh, usul al-fiqh, safr, nahv va mantiq kabi turli sohalaridagi kitoblari bilan ko‘plab shaharlarda shuhrat qozongan[8]. Alloma islom olamida dong‘i ketgan ko‘plab shogirdlarni ham yetishtirib chiqargan. Ulardan quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Hisomiddin ibn Ali ibn Muhammad Abivardiy (vaf. 816/1413 y.).

2. Burhoniddin Haydar ibn Muhammad ibn Ibrohim Sheroziy Xavofiy, Sadr Haraviy nomi bilan mashhur bo‘lgan (vaf. 854/1450 y.).

3. Alouddin Abulhasan Ali ibn Muslihiddin Muso ibn Ibrohim Rumiy Hanafiy (vaf. 841/1437 y. – Qohira).

4. Alouddin Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Muhammad Buxoriy Ajamiy Hanafiy.

5. Haydar ibn Ahmad ibn Ibrohim Abulhasan Rumiy Asl Ajamiy Hanafiy. U Qohirada yashagan va hijriy 854/1450 yilda vafot etgan.

6. Alouddin Ali Qo‘jhisoriy.

7. Shams al-Karimiy. Uning to‘liq ismi Muhammad ibn Fazlulloh ibn Majd Ahmad (vaf. 861/1457 y.).

8. Yusuf Jamol Halloj Haraviy Shofe‘iy, ash-Shams al-Karimiyning otasi.

9. Jaloliddin Yusuf ibn Rukniddin.

10. Mirak Sayroniy yoki Sayramiy.
11. Lutfulloh Samarqandiy.
12. Shihobuddin Muhammad.
13. Shamsuddin Fanoriy. U Muhammad ibn Hamza Shamsuddin Abu Abdulloh Fanoriy Rumiy Hanafiydir.
14. Asir Bag‘dodiy. U Jibril ibn Solih Asir Bag‘dodiydir.
15. Sa‘duddin Loriy.
16. Fathulloh Sharvoniyy. U Fathulloh ibn Abdulloh Sharvoniyydir (vaf. 857/1453 y.).
17. Mahmud Saro‘iy.
18. Muhammad ibn Atoullloh ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Mahmud Abu Abduroziy (776-829/1374-1425). U imom al-alloma, shams ad-din nomlari bilan ulug‘langan va qozi al-quzot bo‘lgan[9].

Olim tafsir, fiqh, kalom, nahv, balog‘at va mantiq kabi sohalarni puxta o‘zlashtirib, shu sohalarda ko‘plab kitoblar tasnif qilgan. Sa‘duddin Taftazoniy islom olamida eng yosh kitob yozgan olimlar sarasiga kiradi. Zero, u o‘n olti yoshidayoq “Sharh at-tasrif al-iziy” nomli asarni yozib tugatgan[10]. Ma‘lumotlarga qaraganda, uning ilmiy-ma‘naviy merosiga tegishli asarlar qirqdan ortiq. Ulardan mashhurlari:

Kalom ilmiga oid:

1. Kitob al-maqosid.
2. Al-Maqosid fi ilm al-kalom (Sharh al-maqosid) yoki Sharh ash-sharh.
3. Sharh al-aqoid an-nasafiya.
4. Ar-Radd ala Zindiq Ibn Arabiy.

Usul al-fiqh ilmiga oid:

1. Talvih fi kashf haqiq at-tanqih.
2. Sharh al-muxtasar alo kitob muntaho as-savol val-amal fi ilmay al-usul val-jadal.
3. Ni‘am as-savobig‘ fi sharh al-kalim an-navobig‘.

Fiqh ilmiga oid:

1. Fatovo al-hanafiya.
2. Sharh faroiz as-Sirojiya.
3. Al-Miftoh fi furu‘ al-fiqh ash-Shofiiy.
4. Ixtisor sharhi talxis al-jome‘ al-kabir.
5. Sharh fiqh al-Kaydoniy.
6. Kitob al-ihzor.

Hadis ilmiga oid:

1. Arba‘un fi al-hadis.
2. Risolat al-ikroh.

Tafsir ilmiga oid:

1. Alloma Mahmud Zamaxshariyning “Tafsir al-kashshof” tafsiriga yozilgan hoshiya “Talxis al-kashshof”.

2. Kashf al-asror va iddat al-abror fi tafsir al-Qur’on.

Nahv ilmi (arab tili grammatikasi)ga oid:

1. Sharh at-tasrif al-izziy.

2. Irshod al-Hodiy.

3. Sa’diyning “Bo’ston” nomi bilan mashhur devonining turkiy tildagi nasriy tarjimasi.

Balog‘at ilmiga oid:

1. Sharh al-mutavval yoki Sharh at-talxis al-mutavval. “Damashqning Voizi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Jaloliddin ibn Abdurrahmon Qazviniy Shofi’iyning “Talxis al-miftoh fi-l-ma’oniyy val-bayon” asariga yozilgan sharh.

2. Muxtasar al-ma’oniyy. Bu sharh “Sharh at-tasrif al-izziy” asariga bitilgan ikkinchi mashhur sharhining nomi bo‘lib, u yana “Muxtasar sharh Talxis al-miftoh” ismi bilan ham ma’lumdir.

3. Sharh kitob al-Miftoh. Ushbu asar Alloma Sirojiddin Abu Ya’qub Yusuf ibn Abu Bakr Sakkokiyning “Kitob al-miftoh” risolasiga yozilgan sharhdir.

4. Sharh al-qism as-solis min al-miftoh.

Mantiq ilmiga oid:

1. Tahzib al-mantiq val-kalom.

2. Sharh ar-risola ash-shamsiya.

Arifmetika va geometriyaga oid:

1. Sharh ar-risola ash-shamsiya fi-l-hisob.

2. Risola fi zavoii al-musallas.

3. Tasoviya az-zavoya.

Ko‘rinib turibdiki, Sa’duddin Taftazoniy deyarli barcha fan sohalariga oid qimmatli asarlar yozib qoldirgan. Ularning har biri necha-necha ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, alloma asarlaridan XIV-XVI asrning ikkinchi yarmigacha Movarounnahr va uning atrofidagi madrasalarda o‘quv qo‘llanmasi sifatida foydalanilganligi ham buni yana bir marta isbotlaydi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdulhusayn Navotiy. Rijoli kitob habib as-siyar. – B. 69.
2. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. – B. 12.
3. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-Maqosid. – B. 79.
4. Abdulhusayn Navotiy. Rijoli kitob habib as-siyar. – B. 69.
5. Abdulhusayn Navotiy. Rijoli kitob habib as-siyar. – B. 66.
6. Imom Suyutiy. Bug‘yat al-vuot. J. II. – B. 285; Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B. 22.

7. Zirikliy. Al-A’lom. J. VII. – B. 219; Sharafuddin Roqimiy. Tarixi tomm. – T.: Ma’naviyat, 1998. – B. 22.
8. Sa’duddin Taftazoniy. Sharh al-aqid an-nasafiya. – Istanbul: Maktabat al-Furqon. – B. 13.
9. Ahmad Shantoviy. Doirat al-ma’orif al-islomiya. J. V. – B. 339.
10. Sa’duddin Taftazoniyning balog‘at faniga oid “al-Mutavval” asari Kanstantinoplda Jurjoniy hoshiyasi bilan 1260/1844, 1265/1849 va 1289/1872 yillarda nashr qilingan.